

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH

Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

MUTALOV Dilshod Azizovich*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi**“Orkestr dirijyorligi”**kafedrasining katta o‘qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10805105>

О‘ЗБЕК ХАЛҚ ЧОЛГ‘УЛАРИДА КО‘П ОВОЗЛИЛИКНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ

ANNOTATSIYA

Har qanday yangilikning jamiyatga kirib kelishi va uni xalq tan olishi uchun bir nechta bosqichlarni bosib o‘tadi. Bu kabi yangiliklar barcha sohalarda bo‘lgani kabi musiqa yo‘nalishini ham chetlab o‘tmagan.

O‘zbekistonda ko‘povozli musiqa, ayniqsa o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligida qanday tarixiy davrlarni bosib o‘tdi, uning shakllanishida kimlar rahnamolik qildi, hozirgi kunda ushbu ijrochilik yo‘nalishi qanday yutuqlarga erishdi?

Ushbu savollarga quyidagi maqolada mukammal javob berishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: orkestr, xalq cholg‘ulari, O‘zbekiston, tarix, shakllanish davri, jamoalar, orkestr, dirijyor, ko‘povozlilik.

ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МНОГОГОЛОСИИ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ

АННОТАЦИЯ

Любая инновация проходит несколько этапов, чтобы войти в общество и быть признанной народом. Подобные новости, как и во всех сферах, не обошли стороной и музыкальное направление.

Какие исторические периоды переживала в Узбекистане многоголосная музыка, особенно узбекские народные инструменты, кто руководил ее формированием и каких достижений достигло это направление исполнительства сегодня?

В следующей статье была предпринята попытка ответить на эти вопросы.

Ключевые слова: оркестр, народные инструменты, Узбекистан, история, период становления, коллективы, оркестр, дирижёр, многоголосия.

HISTORY OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF POLYPHONY IN UZBEK FOLK INSTRUMENTS

ANNOTATION

Any innovation goes through several stages to enter society and be recognized by the people. Similar news, as in all areas, did not spare the musical direction.

What historical periods did polyphonic music, especially Uzbek folk instruments, experience in Uzbekistan? Who led its formation and what achievements has this direction of performance achieved today?

The following article attempted to answer these questions.

Key words: orchestra, folk instruments, Uzbekistan, history, period of formation, groups, orchestra, conductor, polyphony.

Ko'p ovozli musiqa targ'ibotchisi, o'zbek xalq cholg'ulari professional orkestrlari Respublikamizda o'tgan asrning o'ttizinchi yillari oxirida shakllana boshlagan. Tarixdan ma'lumki, 1928 yili Samarqand shahridagi musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot institutida milliy cholg'ularni yasash mahorati, undagi tembr, tovush qator, diapazon, ijrochilik va texnik imkoniyat hamda boshqa ko'rsatkichlar atroflicha ilmiy asosda o'rganila boshlangan edi. V.Uspenskiy, N.Mironovlar boshchiligidagi bir gypux soha mutaxassislari, sozandalar va sozgar ustalar bu ishga jalb qilingandilar. Mazkur guruhga keyinchalik taklif etilgan A.Petrosyans o'zbek milliy cholg'ularini o'n ikki bosqichli teng temperatsiyalashtirish asosida, o'sha paytdagi atama bilan aytganda rekonstruksiya (qayta ta'mirlash) qilishga rahbarlik qila boshladi. U 1888 yilda ilk faoliyatini boshlagan pyc xalq cholg'ulari orkestrining tashkilotchisi V.Andreev tajribasiga tayangan xolda o'z izlanishlarini olib bordi.

A.Petrosyans va guruhdagi hamfikir-mutaxassislar bu boradagi ilk izlanishlari va tajribasinoqlari muvaffaqiyatli chiqdi. Undan ilhomlangan gypuh a'zolari endi qayta yaratilgan cholg'ular asosida - ularning oiladosh turlarini barpo etish ustida ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishdi. "Shuning barobarida o'z maqsadlariga erishish yo'lida: xalq xofizlari, mohir sozandalar va benazir sozgar ustalar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari Shorahim Shoumarov, Usta Usmon Zufarov, Matyusup Xarratov, Usta Ro'zimatxon Isaboevlar, yosh iste'dodli ustalardan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Xirojiddin Muhitdinov, Abdunabi Abdug'ofurov va boshqalar jalb qilindilar" [1, B.63]. Natijalar ijobiy bo'lgach, halq cholg'ulari orkestrini tuzish asosiy maqsadlardan biriga aylandi.

1936 yili o'zbek davlat filarmoniyasiga acoc solinib, ko'plab tuzilinayotgan badiiy ja'moalar (o'sha paytda "sexlar" deb nomlanardi) qatori, 98 kishilik katta ashula va raqs ansambli san'at ustasi, bastakor O'zbekiston xalq artisti To'xtasin Jalilov rahbarligida o'z faoliyatini boshlaydi. Taniqli pianinochi A.Podgorniy va yosh kompozitor, O'zbekiston xalq artisti, Mutal (Mutavakkil) Burxonovlar filarmoniya badiiy jamoalari artistlariga "musiqa nazariyasi" fanidan saboq bera boshladilar.

"1937 yili N.Mironov 98 kishilik o'zbek xalq cholg'ulari katta ansambl tarkibidan 24 nafar iste'dodli sozandalarni tanlab, ularga "Musiqqa nazariyasi" va boshlang'ich "Garmoniya asoslari" fanlarini qunt bilan o'rgata boshlaydi" [3, B.55]. Tez orada orkestr ijrochiligining ko'p qirralarini o'zida jam qilgan, o'zbek xalq cholg'ulari orkestrini tuzadi. Yangi jamoa tarkibiga milliy sozlar bilan birga fortepiano, truba va trambon kabi cholg'ular ham kiritiladi. Yangi musiqiy jamoa o'zining ijrochilik mahoratining yuksakligi tufayli, musiqa shinavandalari va mutaxassislarining nazariga tushadi.

Ilmiy asosda o'tkazilgan xalq cholg'ularining takomillashtirish jarayonlari izlanishlar natijasida 1938 yilning noyabr oyida, yuqorida qayd etilgan orkestr asosida o'n ikki bosqichli teng temperatsiyalashtirilgan cholg'ulardan (nay-pikkolo, pikkolo, alt, tenor va bas changlar, prima, sekunda, alt, bas va kontrobas dutorlar, qobus bas va qobus kontrobas) tarkib topgan orkestr tashkil etiladi.

Orkestr bosh dirijyori va badiiy rahbari etib O‘zbekiston san‘at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, professor Ashot Ivanovich Petrosyans tayinlanadi. Ko‘p vaqt o‘tmay “orkestr jamoasi II Jahon urushi tufayli o‘z faoliyatini vaqtincha to‘xtatishga majbur bo‘ladi. Qanchadan-qancha qiyinchiliklar bo‘lishiga qaramay, orkestr 1943 yilidayoq yana o‘z faoliyatini qayta tikladi” [4, B.35].

1948 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida (hozirgi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi) xalq cholg‘ulari fakultetining tashkil etilishi hamda bastakor va kompozitorlarning ommaviy musiqa janrlariga murojaat qilishlari - orkestrning ijodiy kamolatida muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada milliy dasturga acoc solindi, tinglovchilarning tahsinlariga sazovor asarlar yaratildi. Oradan bir yil o‘tgach, 1949 yilning noyabrida orkestrning kompozitorlarning III anjumani doirasidagi o‘tkazilgan konsertlaridagi chiqishlari tinglovchilar va musiqa vakillari tomonidan katta olqishlar bilan kutib olindi.

Orkestr 1951 yil noyabrida O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati dekadasi qatnashchilari safida Moskva shahrida konsertlar berish sharafiga muyassar bo‘ldi. Shundan so‘ng ular “sobiq SSSRning ko‘pgina shaxarlarida o‘zbek milliy musiqa san‘ati va kompozitorlarning asarlarini tashviqot qildi. 1957 yilda orkestrning yoshlar tarkibi xalq cholg‘ulari orkestrlarining Xalqaro tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etib – “Oltin medal” sohibi va “Laureat” unvoniga sazovar bo‘lishdi” [5, B.44].

1966 yili orkestrga O‘zbekiston xalq artisti, taniqli ustoz san‘atkor To‘xtasin Jalilov nomi berildi. Orkestr dasturining boyishi va ijrochilik mahoratining oshishida, unga dirijyorlik qilgan: L.Sultonova, X.Izomov, N.Alimov, A.Bahromov, S.Jalil, F.Nazarovlar shuningdek, “1958 yildan orkestr jamoasining badiiy rahbari va bosh dirijyori vazifasini bajargan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Said Aliev va boshqalarning munosib hissalarini bor” [2, B.35].

1976 yildan boshlab orkestrga O‘zbekiston xalq artisti, professor Faruk Sodiqov badiiy rahbar va bosh dirijyor etib tayinlandi. F.Sodiqov O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Xalq cholg‘ulari” fakulteti va opera-simfonik dirijyorligi bo‘limini tugatgan. Shu o‘tgan davrda mobaynida u bilan birga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan Madaniyat xodimi Anvar Liviev, O‘zbekiston san‘at arbobi, professor Firuza Abdurahimovalar dirijyor sifatida faoliyat olib borishgan.

Orkestrning ijro dasturida o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlari, mumtoz durdonalarimiz, jahon klassik va o‘zbek kompozitorlari asarlari alohida o‘rin tutgan. Yirik musiqa janrlarida yaratilgan ijod mahsullarini talqin etishda, maromiga etkazilgan texnik mahorat zaminida maestro F.Sodiqovning serqirra, tinimsiz mehnatlari mujassam bo‘lib, u orkestrning mavqeini yangi sifat darajasiga ko‘tara oldi.

Natijada 18 ta gramplastinka hamda “Musiqali palitra” film-konserti yaratishga erishildi. Jamoa ko‘povozli musiqa ijrochiligida erishgan yutuqlari uchun 1980 yili “Davlat orkestri”, 1991 yilda Respublikada yagona “Akademik orkestr” unvoniga sazovor bo‘ldi. Orkestr nufuzli xalqaro musiqa festivallarida qatnashib o‘zbek musiqa san‘atini munosib namoyish etib keldi. Misol tariqasida “Kiev bahori”, “Sochi oqshomi”, “Belorussiya kuzi”, Rossiyaning Karaganda shahrida o‘tkazilgan “Musiqali Sari-Arqa”, Samarqandning an’anaviy “Sharq taronalari”, Xalqapo xalq cholg‘ulari orkestrlari festivali, “Ostona Serper-2006” va boshqalarni kelitirish mumkin [6, B.85].

Respublikamizda munosib faoliyat ko‘rsatgan orkestrlardan yana biri - Doni Zokirov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestridir. O‘zbekiston radiosi qoshida 1927 yili Yunus Rajabiy boshchiligida milliy xalq cholg‘ulari ansambli tuzildi. Bu ijodiy jamoaning faoliyat yuritishi Respublikada musiqa madaniyati va ijrochilik san‘atini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. “Ansambлга mumtoz musiqamiz sirlarini yaxshi bilgan mashhur sozanda Domla Halim Ibodov, atoqli xofiz Mulla Tuychi Toshmuhamedovlar taklif etilgan” [2, B.78].

Dastlabki chiqishlaridanok san‘at muhlislari e‘tiborini qozongan ijodiy jamoa dasturida Vatan, muhabbat, sadoqat va vafo, qaxramonlik va boshqa mavzudagi xilma-xil betakror asarlar bor edi.

Ansambl tarkibi takomillashib bordi. Unda asrlar bo‘yi xalqimiz mehrini qozonib kelayotgan nay, qo‘shnay, surnay, chang, qonun, rubob, dutor, tanbur, sato, ud, g‘ijjak, doira va boshqa milliy cholg‘ular bilan birga yangi yaratilgan va takomillashtirilgan cholg‘ular ham munosib o‘rin egalladi. Natijada nota bilan ijro qila oladigan orkestr jamoasini tuzish imkoni yaratildi.

O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari ansambli asosida yangi ko‘povozli jamoa tuzildi va 1957 yil may oyidagi Hukumat qarori bilan rostmana ko‘p ovoqli orkestr sifatida o‘z faoliyatini boshladi. Milliy musiqamiz bilimdoni Yunus Rajabiy orkestrning badiiy rahbari etib tayinlandi, bosh dirijyor lavozimiga esa O‘zbekiston xalq artisti Doni Zakirov taklif etildi. Mana shu ikki ijodkorning tinimsiz mehnatlari tufayli jamoaning mavqei tiklanib yangi ijodiy barqarorlikka erishildi.

Orkestrning ijrochilik yo‘lini shakllantirish va dasturini boyitishda O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor Doni Zokirovning xizmatlari beqiyosdir. Orkestr ko‘pgina zabardast o‘zbek kompozitorlarining asarlarini radioning ohangrabo - magnit tasmasiga yozishga erishdi. Bugungi kunda bu asarlar O‘zbekiston musiqasining “Oltin fondi”da saqlanmokda.

“Orkestrning kundalik ish faoliyatini boshqarishda dirijyorlar; O‘zbekiston xalq artisti R.Murodov, San‘at arboblari Xayri Izomov, Respublikada xizmat ko‘rsatgan artistlar Ubaydulla Abdullaev, Telman Xasanov, Nikolay Savinov, Fazliddin Yunusov, Mustafobofoev, Abdusalom Mutalov, Sotvoldi Karimov, Botir Rasulov, Jo‘ra Ortiqov, Hikmat Rajabov va Dilshod Mutalovlar faoliyat olib borganlar” [7, B.17].

1989 yilda O‘zbekiston teleradiosi qoshidagi orkestr jamoasiga o‘zbek musiqa san‘atining o‘sishi, uni dunyoga tanitish, milliy musiqa merosi oltin fondini boyitishda o‘zining benazir xizmatlari bilan nom qoldirgan ustoz Doni Zokirov nomi berilgan.

Bu ikki zabardast orkestrlar 2014yil birlashtirilib, “Davlat Akademik xalq cholg‘ulari orkestri” nomi bilan faoliyat olib bora boshladi. Orkestrning badiiy rahbari va bosh dirijyori etib “Shuhrat” medali sohibi Dilshod Mutalov tayinlandi. Jamoa mahoratli dirijyor rahbarligida o‘z faoliyatini professional darajada davom ettirdi. Respublika va Xalqaro miqyosda o‘tkazilgan tadbirlarda faol ishtirok etdi. Yosh avlodning ma‘naviy dunyosi va estetik tarbiyasini rivojlantirish maqsadida maktab o‘quvchilari uchun maxsus dasturlar tayyorladi. Turli mavzulardagi ma‘ruza-konsertlarini tashkil etdi. Mazkur jamoa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 2 fevralda “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli Qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida turli tashkilot va oliy o‘quv yurtlarida rang-barang dasturlarini namoyish etib, tinglovchilar olqishiga sazovor bo‘ldi.

1990 yillarga kelib, yana bir professional jamoa “kamer” (kamer - so‘zi “xonaki ijro” degan ma‘noni bildirib, 15-20 kishidan oshmagani sozandalar guruhiga aytiladi.) orkestri sifatida shakllandi. Bu “Sug‘diyona” davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri bo‘lib, jamoaga 16 nafar - yosh, o‘z kasbining ustalari va elga tanilgan sozandalar taklif etildi. Orkestrning tashkilotchisi, bosh dirijyor va badiiy rahbari O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Orkestr dirijyorligi” kafedrasining professori, O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi Firuza Abdurahimovadir. Shu o‘tgan davrda orkestr Rossiya, Qozog‘iston, Germaniya, Ispaniya, Misr, Janubiy Koreya, Fransiya, Hindiston va boshqa davlatlarda bo‘lib, o‘z ijrochilik mahorati bilan tinglovchilarni maftun etib kelmoqda.

1996 yili Ispaniyaning Logrono shahrida XXX Xalqapo Musiqa festivalida Laureat bo‘lib, yuksak ijrochilik mahorati uchun Xalqaro sertifikatga ega bo‘ldi. Orkestr tomonidan oltita musiqiy albom: “Sozlar navosi” (1995), O‘zbekiston-Bavariya muloqoti (1998), “Interfolk” (2000), Britaniya rok-folk (2004) kantri-myuzik guruhlari bilan hamkorlikda, “O‘zbekiston taronalari” va “Dunyo musiqasi” (2006) chiqarildi va eshituvchilar hukmiga havola etildi. Jamoa 2007 yili “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalida qatnashish sharafiga erishdi.

Orkestr konsert dasturining xalqchilligi, shuning bilan birga ijro mahoratining yuksakligi bilan ajralib turadi. Uning dasturlari rang-barang bo‘lib, Sharq va Fapb kompozitorlarning asarlari bilan birgalikda o‘zbek xalq musiqa merosining nodir na‘munalari ham munosib o‘rin olgan.

“Sug‘diyona” jamoasi zamonaviy musiqa ijrochilik qirralarini ham o‘zlashtirib, o‘z dasturlarini xilma-xilligini ta‘minlashga erishmoqda. Bunga misol sifatida kompozitorlar - Avaz Mansurovning “Moziydan sado”, Dilorom Saydaminovanning “Sarob”, Habibulla Rahimovning “Yozuv mashinkasi”, “XX asp sadosi” kabi asarlarni keltirishimiz mumkin.

“Sug‘diyona” kamer orkestri “Toshkent bahori” (hozirgi “Navro‘z sadolari”), 1996 yildan hozirgi kunga qadar “Xalq cholg‘ulari ko‘p ovoqli ansambl va orkestrlarining Xalqaro festivali”ning asosiy tashkilotchisi va mezboni sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Unda uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlardan kelgan ko‘plab musiqashunoslar, sozandalar ishtirok etib betakror musiqa ijrochilik san‘atlarini xalqimizga namoyish etishda davom etmoqdalar.

“Golden Trophy” (Fransiya) I Xalqaro musiqiy tanlovida jamoa “Oltin” diplom hamda g‘oliblik unvoniga sazovor bo‘ldi. Jamoaning yana bir yutuqlaridan biri, Qozog‘iston Respublikasining Ak-Tobe shahrida bo‘lib o‘tgan “Jubonov-koktemi” xalqaro festival tanlovida faxrli “Oliy” o‘rin bilan taqdirlanib, “Xalqapo tanlov g‘olibi” nomini qo‘lga kiritdi.

Bu etuk jamoalar bugungi kunda dasturlariga kiritilgan musiqiy asarlar markazida ezgulik, pok insoniy muhabbat, yurtga sadoqat, insonni ijobiy fazilatlarini ulug‘lash, tinchlikka, totuvlikka, vijdon erkinligi singari ulug‘ g‘oyalar turishi bilan ham tinglovchilar mehrini qozonib kelmoqdalar.

Mustaqillik davrida yurtimizda musiqa san‘atini keng rivojlanishiga yo‘naltirilgan dastur va rejalar amalga oshmoqda, nufuzli xalqaro hamda respublika anjumanlari, tanlovlar muntazam o‘tayotgani, mumtoz musiqiy merosimizni yosh avlodlarga bezavol etkazib berish maqsadida amalga oshirilayotgan qator tadbirlar quvonarlidir. Aynan, xalq cholg‘ulari ansambl va orkestrlar yo‘nalishiga bag‘ishlangan bu kabi tadbirlar, kelajak avlodni estetik va ma‘naviy dunyosini o‘shida katta o‘rin tutayotgani esa fahrlidir.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES

1. Караматов Ф. “Узбекская инструментальная музыка”, Т., “Литер. и искусс.”, 1972 г.
2. Петросянц А.И., Визго Т.С. “Оркестр узбекских народных инструментов”, Т., “Госполитиздат”, 1962 г.
3. “Вопросы музыкальной культуры Узбекистана”. Сборник научных статей, Т., “Гафур Гулям”, 1969 г., 1 том.
4. Абрамова С., Абдурахимова Ф. “Ашот Петросянц”. Ургенч, ООО “Мураббий”, 1994 г.
5. Кузнецова Г., Садиков Ф. “Государственный оркестр народных инструментов Узбекистана имени Тухтасина Джалилова”. Из-во “Узбекистан”, Ташкент, 1990 г.
6. Ливиев А. Х. “Исполнительская культура народных музыкальных инструментов в Республике Узбекистан (устные и письменные традиции)”, изд. “Муסיқа”, Ташкент, 2010 г.
7. Umarov Sh. A. “Dirijorlik”. “Tamaddun” nashr., Toshkent. 2023.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz